



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/9

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№9/2023
sentyabr

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir
Baxshullayevich

Jamoatchilik kengashi raisi:
Xamidov Obidjon Xafizovich,
Buxoro davlat universiteti rektori

Tahririyat kengashi raisi:
Maxmudov Mels Hasanovich

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor
Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil
Ergashevich

Tahririyat manzili:
Buxoro shahar,
Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

Telefon:
+998(90)744-00-22

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrdagi 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2023 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. b/t.12,5.
Buyurtma raqami 1.23
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi.
2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatining roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Хайитов Ш. А. Бухоролик уч нафар ҲАЗРАТИ ИНСОН тимсоли-уч китоб талқинида	7
Alimova G'. B. Dinning davlatdan ajratilishi tamoyili	9
Ахматов А. Бухорода фаолият юритган афғон адиблари	13
Iuldashev U. K. Litva-Rossiya munosabatlarida Kaliningrad muammosi	16
Ибрагимова М. Б. Илк мусулмон жамиятида дипломатик алоқалар (Маъорижун Нубувва асари асосида)	20
Мамадиев Б. Б. Шахрисабзнинг қадимий ҳаммомлари	28
Mustafoev J. A. Navoiy oblastida "Paxta ishi" qatag'onini amalga oshirilishi va uning fojeali oqibatlari	33
Nazarov Z. Namangan viloyatida davlat, uy muzeylarining vujudga kelishi va turizm rivojidadagi o'rni	37
Xadjamuratova M. X. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga oid qonunchilik asoslari	42
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Almatova M. Sh. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'rganishda motivatsiyani rivojlantirish	47
Ачилов Ш. Ш. Лексик компетенцияни такомиллаштириш бўйича педагогик технологиялар	53
Kaniyazova J. O. The image of old man in karakalpak, uzbek and kyrgyz prose	57
Matekov A. D. K.Smamutovning «Sizlarga aytib ketmoqchiman...» roman-essesining kompozitsiyasi	60
Mansurova F. Linguistic and pragmatic aspects of clarifying learners' brain dominance in successful english langugae acquisition	63
Mahmudova Kh. R. Analysis of the international experience of television programs on financial literacy	67
Rakhimova I. K. Implementation of worksheet strategy to foster research writing skill	72
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Abdullayev E. Z. O'quychilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslari.	77
Adizova N. B. Zamonaviy ta'lim sharoitida o'qituvchining divergent fikrlashini rivojlanish orqali malakasini oshirish tizimi	81
Aminov A. Sh. Dasturiy ta'lim vositasi yordamida muhandislik kompyuter grafikasi fanining mustaqil ishlarini tashkil etish	86
Arustamyan Y. Y. The role of modern teaching technologies in the process of lecturing	89
Ashurov R. R. Boshlang'ich info'quvchilarini intellektual rivojlantirishning nazariy asoslari	93
Axadova K. S. Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ilmiy muammo sifatida	97
Azamkhonov O. A. Ways of development of speed and strength wrestlers aged 18-20	101
Atoeva M. F. Integratsiyalashgan ta'lim	106
Ахмаджонова Д. Д. Преподавание иностранных языков через онлайн-платформы. Всесторонний обзор и анализ.	109

Сиддиков З. Х. Содда математик моделларни куришда талабалар математик компетентлигини ривожлантириш методикаси	116
Djalolova S. X. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy karyerani loyihalashtirish ko'nikmasini rivojlantirishda nazariy bilimlarning ahamiyati.	121
Джураева Д. Ш. Масала тушунчасини аниқлаштиришга доир турлича ёндашувлар	126
Евстафьева Л. Г. Применение проектного метода в обучении детей в дошкольном образовании	129
Ережепов И. Ю. Физическая культура – основа формирования ценностей здорового образа жизни	134
Fayzullayeva M. A. Ta'lim klasteri sharoitida ta'lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish va rivojlantirish	138
Filippov O. A. Oliy ta'lim zamonaviy paradigmasining asosiy dominantlari	144
Ganiyeva L. M. O'zbekistonda estrada fortepiano pedagogikasini o'rta bosqichda o'rganishning uslubiy masalalari	152
Gulyamova N. A. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarida esse yozish orqali tanqidiy fikrlashni bosqichma-bosqich shakllantirish usuli.	157
Исмадияров Я. У. Особенности алгоритма создания совместных образовательных программ как инструмента интернационализации высшего образования	162
Kudratova A. I. Umumiy o'rta ta'limda funksional savodxonlikni shakllantirish omillari	169
Kuralov B. A. Ta'limiy xakatonlarni o'rganishga oid tadqiqotlar	175
Курбанов Ш. Н. Оценка физического развития борцов различных специализаций на основе антропометрических и соматотипологических показателей.	178
Matjanov N. S. Kvant fizikasini o'qitishda konseptual metodik tizimni yaratishning ilmiy asoslari	12
Мадаминова Г. Г. Инглиз тилини чет тил сифатида ўқитишда Китобхонлар Клубини ташкиллаштиришнинг ижобий натижалари	188
Матназарова М. Б. Условия эффективности интернационализации содержания высшего образования	192
Нарзикулова Ф. Б. Роль педагогического сознания и педагогической позиции в формировании профессионального имиджа	195
Nasimova Z. I. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik kompetetlikka oid ilmiy yondashuvlar	199
Низамова Ш. И. Таълим муассасалари бошқаришнинг педагогик-психологик омиллари	205
Obidov J. G'. Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarga o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik asosida o'qitishni takomillashtirish texnologiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	210
Olloqova O'. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida she'riy matnlar orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirish	215
Otakulova D. H. Scaffolding efl students' writing through the writing process approach	221
Пирниязова М. К. Талабаларнинг уларда тадбиркорлик компетенцияларини ривожлантирувчи витамин тажрибага эгалликларини ўрганиш	225
Pardayeva M. Y. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda fazoviy tushunchalarni shakllantirish	232
Раджабова Д. А. Теоретические принципы определения и формирования интеллектуального потенциала	236
Qaraxonova L. M. Loyihalash usuli o'quvchilarda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish omili sifatida	239
Qodirov J. M. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarning o'quvchilarni tarbiyalash faoliyati	243
Quliyeva Sh. H. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda metodik ishlarning mazmuni	246
Қулматов З. З. Педагогик тадқиқотларни моделлаштириш ва ўтказишда математик-статистик методлар	249
Radjarova Z. T. Landshaft dizayni vositasida talabalarda kreativni rivojlantirish metodikasi	252
Raxmatova M. U. Effective methods for teaching abbreviations	255
Soliyev N. S. Bo'lajak muhandislarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati	257
So'tkulova D. O. Pedagogical conditions for the development of speaking competence in students of non-philological higher educational institutions	260
Садуллоева М. Г. Формирование и развитие будущего учителя в процессе профессиональной подготовки в системе непрерывного педагогического образования	264
Tojiddinova L. Zamonaviy psixologiyaning pedagogikadagi amaliyotini o'rganish	267

BOSHLANG‘ICH SINFI ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA SHE‘RIY MATNLAR ORQALI PRAGMATIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

*Olloqova O‘g‘iljon
Buxoro davlat universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi*

Maqolada ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda she‘riy matnlarni tahlil qilishning ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich sinflarda she‘riy asarni tahlil qilish turlari, tamoyillari, boshqichlari tahlil namunasi bayon qilingan. She‘riy matnlarni tahlil qilish usullari ko‘rsatilgan, pragmatik kompetensiyani shakllantirishga oid topshiriqlardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: matn tahlili, she‘riy matn, kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pragmatik kompetensiya, nutq vaziyati.

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАГМАТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ЧЕРЕЗ ПОЭТИЧЕСКИЕ ТЕКСТЫ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА И ЧИТАТЕЛЬСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*Оллокова Угилжон
Бухарский государственный университет
Преподаватель кафедры начального образования*

В статье подчеркивается важность анализа поэтических текстов в формировании прагматической компетентности учащихся на занятиях родного языка и читательской грамотности. Описаны виды анализов, принципы анализа поэтического произведения в начальных классах. Показаны методы анализа поэтических текстов, а также приведены примеры задач, связанных с формированием прагматической компетентности.

Ключевые слова: анализ текста, поэтический текст, компетентность, коммуникативная компетентность, прагматическая компетентность, речевая ситуация.

FORMATION OF PRAGMATIC COMPETENCE THROUGH POETIC TEXTS IN PRIMARY CLASS MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS

*Olloqova O‘g‘iljon
Bukhara State University
lecture of the primary education department*

The article highlights the importance of analyzing poetic texts in the formation of students' pragmatic competence in the classes of mother language and reading literacy. The sample of analysis of the types, principles, and principles of the analysis of a poetic work in elementary grades is described. Methods of analyzing poetic texts are shown and examples of tasks related to the formation of pragmatic competence are given.

Key words: text analysis, poetic text, competence, communicative competence, pragmatic competence, speech situation.

Kirish. Boshlang‘ich sinfi o‘quvchilarida pragmatik kompetensiyani shakllantirishda matnning fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan tahlil qilish eng samarali usullardan biridir. Matn tahlili orqali pragmatik kompetensiyani shakllantirish matnning qay darajada idrok qilingani bilan bevosita bog‘liq holda kechadi. Badiiy matnning to‘liq idrok qilishda leksik birliklar ma‘nosi tushunish muhim ahamiyatga ega. O‘zbek tili bo‘yicha to‘liq idrok qilishda leksik birliklar ma‘nosi aynan kontekstda aniqlanadi. So‘z ifodalayotgan ma‘no aniqlanmas ekan, matnning o‘quvchilar tomonidan idrok qilinish jarayoni to‘liq amalga oshmaydi. Badiiy matnning to‘liq idrok qilinishi uchun o‘qituvchi birorta ham leksik birlikni e‘tibordan chetda qoldirmasligi kerak.

Asosiy qism. Professor Q.Yo‘ldoshev badiiy matnning tahlil qilishga shunday ta‘rif beradi: “Adabiy asarning yozilgan hamda o‘rganilayotgan vaqtdagi badiiy va hayotiy mantig‘i hamda estetik jozibasini anglashga yo‘naltirilgan ilmiy faoliyatga badiiy tahlil deyiladi”. Olim badiiy matnning tahlil qilish

shakliga ko'ra 2 turga bo'ladi va har bir turning afzallik va kamchilik tomonlarini yoritib beradi.

1. Yozma tahlil.
2. Og'zaki tahlil.

Har qanday badiiy asar bir qancha tamoyillar asosida tahlil qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda badiiy asarni tahlil qilishning bir qancha tamoyillari ajratib ko'rsatilgan.

1. Tahlilning notugalligi.
2. Har qanday ilmiy tahlilning faqat shaxsiy fikr ekanligi va u hech qachon mutlaq haqiqatlik da'vosini qilishi mumkin emasligi.

3. Yaxlitlik.
4. Tizimlilik.
5. Tarixiylik.
7. Estetik asoslarning ustuvorligi.
8. Hissiylik.

Soha mutaxassislarining ta'kidlashicha, badiiy asar tahlili oltita yo'nalish asosida amalga oshiriladi:

1. Genetik.
2. Tipologik.
3. Funksional.
4. Falsafiy.
5. Psixologik.
6. Lingvistik.

Badiiy asarning lingvistik tahlilida so'zning o'z va badiiy ma'nosi, kontekstdagi jozibasi, badiiy matn zamiriga yashirilgan mazmun va bu yashirilganlikning hayotiy ham estetik sabablari singari bir qator jihatlariga e'tibor qaratiladi [4, 40]. Boshlang'ich sinflarda she'r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, lirik va epik she'rlar o'qitiladi. She'riy matn nasriy matnga qaraganda sintaktik qurilish jihatdan biroz farq qilganligi uchun lingvistik jihatdan tahlil qilish ham o'ziga xos.

Boshlang'ich sinflarda she'riy matnni tahlil qilish nisbatan murakkab jarayon bo'lib, o'qituvchidan katta bilim va mahorat talab qiladi. She'rlarni tahlil qilish uchun o'qituvchi badiiy uslub mohiyatini bilishi, uslub tendentsiyalari, qofiyalar turlarini aniqlay olishi, she'riy matnning grafik tasvirini yarata olishi, fonetik va sintaktik vositalarni bilishi kerak. She'riy asarni tahlil qilish ko'p vaqt talab etadi. Shu sababli she'rni tahlil qilish nasriy matnga nisbatan qiyinroq. She'rlarni o'rganish, ularning mazmuni ochib berish, shoir ko'zlagan "yashirin ma'no"ni tushunish o'quvchilar uchun katta qiyinchiliklarga olib keladi. Bizningcha, ushbu qiyinchiliklarni bartaraf qilishning oson yo'li she'riy matnda so'zlarning aynan qanday ma'noda kelayotganligini tushuntirish lozim. Bunda she'rdagi har bir so'z, jumlani nafaqat ma'no jihatidan, balki fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan ham tahlil qilish kerak.

Metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinflarda she'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkinligi aytilgan:

- 1) she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);
- 2) she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);
- 3) she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);
- 4) she'rni yod aytib berishga tayyorlanish;
- 5) epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash;
- 6) she'rdagi notanish so'zlar ustida ishlash.

She'riy matnni yuqoridagi ish usullardan foydalangan holda o'rganish asarning o'quvchilar tomonidan yaxlit idrok etilishiga qaratilgan bo'lib, uning lingvistik tahliliga e'tibor qaratilmaydi.

Filologiya fanlari doktori M.Yo'ldoshev ilmiy izlanishlari natijasidan kelib chiqib she'riy matnni tahlil qilish bosqichlarini quyidagicha ajratadi:

1. Dastlabki tayyorgarlik.
2. Matn va til estetikasi.
3. Badiiy matn va tasviriy vositalar.
4. Estetik hodisa sifatida matn.

Tilshunos olim tomonidan tavsiya qilingan tahlilda she'rning mazmuniy, leksik, sintaktik, morfologik xususiyatiga e'tibor qaratilgan.

Muhokamalar. Biz maqolada 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qism 22-betida

Dilrabo Sadullayevaning “Maktabim” she’rini tahlil qilamiz.

U – ilmning o‘chog‘i,
Ona kabi quchog‘i.
Bag‘rida men ungayman,
Quv nab bilim olgayman. Bunda mehribon ustoz,
Qalbi oftob, qalbi yoz.
Har so‘zin jondan tinglab,
Odobimiz bo‘lar soz.
Do‘stlarim bor bir jahon,
Orzulari baxtga kon.
Bir kun kelib uchgaymiz,
Kelajakni quchgaymiz.

Har qanday badiiy asar singari she’rni ham tahlil qilish uchun dastlabki tayyorgarlik kerak bo‘ladi. O‘quvchilar matnning bir ko‘rishdayoq qator, bandlardan she’r ekanligini tushunishadi.

I. Dastlabki tayyorgarlikning o‘zi ham to‘rt bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda matn turi, muallifi kimligi, sarlavhasi aniqlanadi.

O‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- Biz bugun nimani o‘rganamiz? (Biz she’rni o‘rganamiz.)
- She’rning muallifi kim ekan? (She’rning muallifi Dilrabo Sadullayeva.) Shu o‘rinda she’r muallifining ijod yo‘li haqida qisqacha ma’lumot berib ketish maqsadga muvofiq.

- She’rning sarlavhasini kim aytadi? (She’rning sarlavhasi “Maktabim”.)

Ikkinchi bosqichda she’rning tuzilishi o‘rganiladi.

- She’r necha banddan iborat ekan? (She’r uch banddan iborat.)

- Har bir bandda nechta qator bor? (Har bir bandda beshtadan qator bor.)

- She’rda jami nechta qator bor ekan? (She’rda jami 15 qator bor.)

Uchinchi bosqichda she’r birinchi marta o‘qiladi. She’rni birinchi marotaba o‘qituvchi o‘zi o‘qib berishi, audio matnini eshittirishi, yoddan aytib berishi mumkin. O‘qish jarayonida notanish so‘zlar, ma’nosi tushunilmagan qatorlar belgilab borish topshirig‘i berilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi bosqichda she’r va ijtimoiy hayot o‘rtasidagi aloqa aniqlanadi.

- She’r nima haqida ekan? (She’r maktab haqida.)

- She’r kimga atalgan? (She’r o‘quvchilarga atalgan.)

II. Matn va til estetikasini aniqlash ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda badiiy nutq ko‘rinishlari belgilanadi. Bunda badiiy matn qanday ko‘rinishda (monolog, diolog, ichki va tashqi nutq) ekanligi, kim tomonidan aytilganligi, nutq kimga qaratilganligi, badiiy asar qahramoni, uning fe‘l-atvori aniqlanadi.

She’r kim tomonidan aytilayapti? (She’r “Men” tomonidan aytilayapti.)

- “Men” deganda kim nazarda tutilgan? (Men, do‘stlarim, sinfdoshlarim, ...)

- She’r necha kishi tomonidan aytilgan? (She’r bir kishi tomonidan aytilgan.)

- She’rning qahramoni kim? (She’rning qahramoni “Men”.)

- Sizningcha, u o‘g‘il bolami, qiz bolami? (U o‘g‘il bola yoki qiz bola bo‘lishi mumkin.)

- Sizningcha, u qanday bola? (U yaxshi bola. Chunki maktabni yaxshi ko‘radi, ustozlarini hurmat qiladi, yaxshi o‘qiydi.)

Ikkinchi bosqichda so‘zning estetik va badiiy vazifasi aniqlanadi. Bunda quyidagilarga e’tibor beriladi:

- yozuvchi tomonidan atayin qo‘llangan so‘zlarni aniqlash;

- tarixiy, arxaik, yangi so‘zlarni aniqlash, ma’nosini izohli lug‘atlardan topish;

- iste’mol doirasi chegaralangan so‘zlar (kasb-hunar, shevaga oid, chet tillardan olingan so‘zlar) ni aniqlash;

- ma’nodosh, shakldosh, paronim, zid ma’noli so‘zlarni aniqlash;

- fonetik o‘ziga xosliklarni belgilash (tovush tushishi, ortishi, o‘zgarishi);

- matndagi morfologik o‘ziga xoslikni aniqlash (so‘z turkumlarining ishlatilishi);

- matnning sintaktik o‘ziga xosligini aniqlash (so‘z birikmalari, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, inversiya hodisasi).

- xatboshilar va ular orasidagi bog‘liqlikni aniqlash [5, 109].

Avvalo, o‘qituvchi o‘quvchilarning e’tibori she’r sarlavhasiga qaratgani maqsadga muvofiq.

Bunda sarlavhani fonetik jihatdan tahlil qilishdan boshlash kerak. Ya'ni "maktabim" so'zida nechta tovush va harf borligi, uning necha bo'g'inli so'z ekanligini aniqlab olish lozim. Chunki keyingi ish aynan shu bilan bog'liq.

O'quvchilarga quyidagi savollar ketma-ketligi bilan murojaat qilish mumkin:

- "Maktab" so'ziga so'roq bering. (Nima?, qayer?)
- Maktab so'zi nimani bildirayapti? (Joy nomini.)
- Bu so'zning o'rniga boshqa so'zni ham ishlatish mumkinmi?

Shundan keyin she'rning "Maktabim" deb nomlanganligiga to'xtalish mumkin. O'quvchilar maktab so'zining ma'nosini yaxshi tushunishadi, albatta. Shuning uchun ham o'qituvchi "Nima uchun muallif she'rni "Maktab" emas, "Maktabim" deb nomlagan?" mazmunidagi savol bilan murojaat qilishi mumkin. O'quvchilarning fikr-mulohazalari tinglangach "maktabim" so'zining ma'nosi to'la tushuntiriladi.

Maktabim so'zini morfemik jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, maktab+im, ya'ni asos so'z maktabga I shaxs birlikdagi -im qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Egallik qo'shimchalari ot so'z turkumi doirasida o'rgatiladi. 1-2-sinflarda egallik qo'shimchalari qoida sifatida o'rgatilmaydi. Shuning uchun ham o'quvchilar "maktabim" so'zida egallik qo'shimchasi borligi, I shaxs birlikda ekanligini bilishmaydi. Shu tufayli ham o'quvchilar savolga aniq javob berolmasliklari mumkin. O'qituvchi so'zning ma'nosini izohlashda har bir kishining o'ziga tegishli, o'zi egallik qiladigan nasrlar borligini, maktab ham har bir o'quvchining o'ziniki ekanligini, agar "Maktab" deb nomlanganida maktabning egasi aniq bo'lmasligini, hech kimga tegishli emasligini tushuntirishi mumkin. Bunday bilimlar kelajakda o'quvchilarning egallik qo'shimchalarini o'rganishlari uchun zamin bo'ladi.

She'rning birinchi qatori tahlil qilinganda quyidagi savollarni berish mumkin?

"U" deganda nima nazarda tutilayapti? (Maktab nazarda tutilayapti.)

"U" so'zi tovush tomondan tahlil qilinadi.

Ushbu so'z nechta harfdan iborat? (Bitta u unli harfdan iborat.) Shu o'rinda qoida chiqartirish ham mumkin: so'zlar bitta harfdan ham iborat bo'lishi mumkin. Yana bir qoidani ham takrorlash maqsadga muvofiq: so'zda nechta unli bo'lsa shuncha bo'g'in mavjud bo'ladi. Qoidalar asosida o'quvchilar quyidagicha xulosa chiqarishlari mumkin: "u" so'zi bitta unli harfdan tashkil topgan, shuning uchun bir bo'g'inli so'z. "U" so'ziga so'roq bering (Nima?) nima uchun biz "u" so'ziga "nima?" degan so'roqni berdik? (Joy nomini anglatayotgani uchun.)

"U" kishilik olmoshi bo'lib, I shaxs birlikni ifodalaydi. Shu bilan birgalikda shakldoshlikka ega bo'lib, ko'rsatish olmoshi vazifasini ham bajaradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kishilik olmoshlarining mazmuminini 4-sinfda batafsil o'rganishadi. Yuqorida berilgan savollar esa o'quvchilar 4-sinf bo'lganlarida olmosh so'z turkumini o'rganishga tayyorlaydi.

Shundan keyin "ilmning o'chog'i" birligi tahlil qilinadi. Bunda, asosan, o'choq so'zining lug'aviy ma'nosi aytiladi. O'choq olov yoqish, uni saqlash va ovqat pishirish uchun mo'ljallangan, ustiga qozon o'rnatiladigan uch tomoni yopiq qurilma [6, 618]. O'quvchilar yanada yaxshiroq tushunishlari uchun rasmlarini ham ko'rsatish mumkin.

O'quvchilar, ayting-chi, she'rda ilm bilan ovqat pishirish uchun mo'ljallangan narsa - o'choqning biror bog'liqligi bormi? (She'rda ilm bilan o'choqning bog'liqligi yo'q.) She'rda bu so'z o'z ma'nosida - ovqat pishirish uchun mo'ljallangan narsa ma'nosida qo'llanilganmi? Yo'q bo'lsa, unda qaysi ma'noda ishlatilgan? (Bu yerda o'z ma'nosida ishlatilmagan, balki boshqa ma'noda qo'llangan. She'rda o'choq joy, makon ma'nosida kelayapti.) Shoir "ilmning o'chog'i" deb nimani nazarda tutayapti? (Bilimlar yig'iladigan joyni.) She'rda "o'chog'i" so'zini boshqa so'z bilan almashtirib qo'llash mumkinmi? (Mumkin: koni, joyi, vatani, ...). O'choq va o'chog'i so'zlarini o'zaro taqqoslang. So'zlar qanday farqlanayapti? (q va g' harflari bilan farqlanayapti.) Ilm so'zini boshqa so'z bilan almashtiring. (Ilm so'zini bilim so'zi bilan almashtirish mumkin.)



Birinchi qatorning mazmuni aniqlashtiriladi: maktab - bilim beriladigan joy.

Shundan keyin o'qituvchi she'rda so'zlar boshqa ma'nolarda ham qo'llanishi mumkinligi haqida o'quvchilar tasavvurini shakllantiradi.

Birinchi band uchinchi qator: Bag'rida men ungayman.

"Bag'rida" deganda nima nazarda tutilayapti? (Quchoq'ida.) Bag'ir so'zida nechta tovush bor? U necha bo'g'inli so'z? Bo'g'inlarga ajrating. (Bag'ir so'zida beshta tovush bor. U ikki bo'g'inli so'z:

ba-g'ir.) Bu so'zda qaysi unlilar ishtirok etgan? (Birinchi bo'g'inda a, ikkinchi bo'g'inda i unlisi bor.) Ushbu so'zning imlo lug'atidan yozilishini ko'ramiz. (O'qituvchi imlo lug'atidan bag'ir so'zining yozilishini ko'rsatadi.) "Bag'rida" so'zini bo'g'inlarga ajrating va "bag'ir" so'zi bilan ajratganingizni taqqoslang. (Bag'-ri-da, ba-g'ir. Bag'rida so'zida r dan oldingi i ishtirok etmayapti.) Demak so'zlarga qo'shimchalar qo'shilganda ayrim harflar tushib qolishi mumkin. O'quvchilar, maktabda ham bag'ir (quchoq) bormi? (Yo'q, maktabda hovli, sinf xonalari, ... bor. Biz har kun maktabga boramiz, sinf xonalariga kiramiz.) O'quvchilar, siz qanday qilib unasiz? Aslida nima unadi? (Biz o'sib, ulg'ayamiz. O'simliklar esa yerdan unib chiqadi.) "Unamiz" so'zini qaysi so'zlar bilan almashtirishimiz mumkin ekan? (O'samiz, ulg'ayamiz so'zlari bilan almashtirish mumkin.)

Qator tahlilidan keyin uning mazmuni tushuntiriladi: maktabda men o'sib, ulg'ayaman.

Birinchi band to'rtinchi qator: Quv nab bilim olgayman.

Ushbu qatordan siz nimani tushundingiz? (Biz maktabga kelsak xursand bo'lamiz, bilim olamiz.)

III. Badiiy matn va tasviriy vositalar. Badiiy matnning ta'sirchanligi unda qo'llangan badiiy tasvir vositalariga bog'liq. Ularsiz badiiy asar o'quvchiga estetik zavq bermaydi, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazmaydi. Badiiy asar tahlilining bu bosqichi uchun quyidagilar ahamiyatli:

o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a, kinoya, kichraytirishlarni aniqlash (boshlang'ich sinflarda ilmiy terminlar aytilmaydi);

ibora, maqol, matal, hikmatli so'zlar, ta'sirchan birikmalarni aniqlash [5, 110].

Birinchi band ikkinchi qator: Ona kabi quchog'i.

Maktab nimaga o'xshatilayapti? (Onaning quchog'iga.) nima uchun aynan onaning quchog'iga o'xshatilayapti? Boshqa narsaga ham o'xshatish mumkinmi? (chunki onalarimiz mehribon, ularning quchog'i issiq bo'ladi. Onamiz bizni quchoqlaganlarida biz xursand bo'lamiz, huzurlanamiz. Maktabni yana quyoshga o'xshatish mumkin. Quyosh ham bizga issiq nurini sochadi.)

Ushbu qatorni tahlil qilish jarayonida o'qituvchi o'xshatish vositalariga ham e'tibor qaratish lozim. Chunki qatorda kabi so'zi ishtirok etgan. O'xshatish vositalari nutqning go'zal bo'lishi, uning ta'sirchanligini yanada orttiradi.

Maktabning ona quchog'iga o'xshatilishini qaysi so'zdan bilish mumkin? (Kabi so'zidan.) ushbu jumlaning yana boshqacharoq qilib o'xshatish mumkinmi? (Ona singari, onadek quchog'i, onaday quchog'i.) shundan keyin o'qituvchi aytishi mumkin: tilimizda bir narsani ikkinchi narsaga o'xshatish mumkin. Bunda bizga kabi, singari so'zlari va -day, -dek qo'shimchalari yordam beradi. Bular orqali biz biror narsa yoki hodisani boshqasiga o'xshatishimiz mumkin.

O'qituvchining o'quvchilarda o'xshatish vositalari haqida tasavvur hosil qildirishi she'rning keyingi qatorlari ma'nosini tushuntirishni osonlashtiradi.

IV. Estetik hodisa sifatida matn. Bu bosqichda asar yozilgan vaqt, uning boshqa tillarga tarjimasi, shunga o'xshash asarlar bor yoki yo'qligi, asardan olingan taassurotlar aniqlanadi.

- She'r sizga yoqdimi? Qaysi bandi yoki qatori ko'proq yoqdi? Nima uchun?

- Siz bu she'rni avval ham o'qiganmisiz? O'qigan bo'lsangiz qaysi kitobdan o'qiganingizni ayting.

- "Maktab" haqida yana birorta she'r yoki maqol bilasizmi?

Savollarga o'quvchilar turlicha javob berishlari mumkin.

Biz ko'rib turganimizdek, she'riy matnni chuqur tahlil qilish murakkab va ko'p vaqt talab qiladi. Shuning uchun ham keying bandlarini tahlil qilishda turli xil topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Ikkinchi banddagi mehribon, qalbi, soz so'zlarini qaysi so'zlar bilan almashtirish mumkin? So'zlarni almashtirib she'rni qayta o'qib ko'ring.

Bunda oliyjanob ustoz,

Ko'ngli oftob, ko'ngli yoz.

Har so'zin jondan tinglab,

Odobimiz bo'lar zo'r (yaxshi).

2-topshiriq. Izohli lug'atdan foydalanib soz so'zining boshqa ma'nolarini toping.

Soz – yaxshi, tuzuk, durust, qulay

Soz – milliy musiqa asboblarining umumiy nomi.

3-topshiriq. Uchinchi bandning ma'nosini qanday tushundingiz? Tushunganlaringizni gap shaklida yozing.

Orzulari ko'p bo'lgan bir jahon do'stlarim bor. Kelajakda biz yuqori natijalarga erishamiz.

4-topshiriq. Oxirgi banddagi qofiyadosh so'zlarni topib yozing. Ularni bir-biri bilan taqqoslang. Qanday farq va o'xshashliklari bor?

Jahon – kon; uchgaymiz – quchgaymiz. Birinchi qofiyadosh so'zlarda jahon ikki bo'g'inli, kon

bir bo'g'inli so'z. jahon so'zining ikkinchi bo'g'ini –hon kon so'zi bilan o'xshash talaffuz qilinadi. ikkinchi qofiyadosh so'zlar bitta q harfi bilan farq qiladi.

Xulosa. Maqolada ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini shakllantirishda she'riy matnlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O'quvchilarda pragmatik kompetensiyani o'rgatishda ularni muloqot qilishga o'rgatish, nutqini rivojlantirish, tilning barcha imkoniyatlarini o'rganishi va rivojlantirishi uchun jismoniy, ijtimoiy, psixologik imkoniyatlarni yaratish lozim. Mashg'ulotlarning murakkablashuvi, me'yordan ortiq aqliy zo'riqish bolaning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Agar dars mashg'ulotlari to'g'ri va aniq reja asosida tashkil qilinsa, ijodiy ko'rinishdagi o'quv topshiriqlaridan keng foydalanilsa, o'rganganlarini turli hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyati yaratilsa ko'zlangan natijaga erishish mumkin.

Pragmatik kompetensiya o'quvchilarning muloqotchanligida namoyon bo'ladi. Pragmatik kompetensiyani – kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish, egallangan bilimlarning amaliy imkoniyatlaridan o'rinni foydalana olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan turli tipdagi dialoglar, hayot bilan bog'liq voqealarni aks ettiruvchi matnlar o'z aksini topishida ko'rinadi. Shuning uchun ham u kommunikativ kompetensiya bilan birgalikda shakllantiriladi.

2. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish uchun ularning lug'at boyligini oshirish, so'zlarning bir va ko'p ma'noliligini tushuntirish, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, paronimlik va shu kabi hodisalar mohiyatini ochib berish, nutqda til birliklari (iboralar, maqollar, hikmatli so'zlar)dan foydalana olish ko'nikmasini tarkib toptirish zarur. Buning uchun dars jarayonida o'rganilayotgan matn xususiyatidan kelib chiqqan holda badiiy matnni to'g'ri tahlil qilish, uning o'quvchilar tomon ongli o'zlashtirilishiga erishish zarur.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida she'riy matnni lingvistik tahlil qilish quyidagilarga imkon yaratadi:

- bir paytning o'zida o'rganilgan qoidalarni takrorlashga;
- tushunganlari asnosida xulosa chiqarishga;
- yangi qoidalarni o'rganish va yaratish uchun zamin tayyorlashga;
- so'z ma'nosining konteks bilan bog'liq holda anqilanishiga.

4. Boshlang'ich sinflarda she'rni og'zaki tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki yozma tahlil anchayin murakkab bo'lganligi uchun hali o'quvchilarda bunday ko'nikma to'liq shakllanmagan bo'ladi. Bundan tashqari, og'zaki tahlil bir paytning o'zida barcha o'quvchining fikrini tinglash, barchani birdaniga baholash, vaqtdan unumli foydalanish imkonini beradi.

She'rdagi har bir qator qanchalik chuqur tahlil qilinsa, o'quvchilarning she'r mazmunini idrok qilishi shunchalik osonlashadi. Natijada esa turli nutqiy vaziyatlarda so'zni o'z va ko'chma ma'noda ifodalash ko'nikmasi hosil bo'ladi, o'quvchilarda pragmatik kompetensiya shakllanib boradi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari "ona tili" fani bo'yicha. -T.: "Toshkent", 2021. – 252 b.
2. Azimova I. A. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. 2-sinf uchun darslik. - Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2021. – 120 b.
3. Azimova I. A. va b. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism. 2-sinf uchun darslik. - Toshkent: "Respublika ta'lim markazi", 2021. – 120 b.
4. Yo'ldoshev Q., Fayzullayeva O. Badiiy tahlil asoslari. – Guliston, 2020. -160 bet.
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2008. -120 bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-tom. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -712 b.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV jild. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. -608 bet.